

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O‘ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
-----------------------------------------------------------------------------------------------------	-------

<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
---------------------------------------------------------------------------------------------	---------

<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------

<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137
--------------------------------------------------------------------------------------------	---------

PEDAGOGIKA FANLARI**TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING
GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH****Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich**

Alfraganus universiteti umumkasbiy, fanlar kafedrası (PhD) dotsenti

E-mail: b.haqberdiyev@afu.uz**Ismag'ilova Madinabonu Shovkat qizi,****Imomnazarova Durdona Farxod qizi**

Alfraganus universiteti Turizm fakulteti, dizayn yo'nalishi talabalari

Annotatsiya. Ushbu tezisda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassisliklarining grafik va ijodiy kompetentligini raqamli texnologiyalar orqali o'qitishda yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish, grafik va ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va amaliyotda sinab ko'rish haqida qizqa ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, muhandislik grafikasi, integratsiya, kompetentlik, sub'yekt, islohot, axborot, texnologiya, tadqiqot, ilm, pedagogika, model.

**FORMATION OF GRAPHIC AND CREATIVE COMPETENCE OF SPECIALISTS IN
FINE ARTS AND ENGINEERING GRAPHICS****Khakberdiev Bakhtiyor Rustamovich**

Alfraganus University General Professional

Associate Professor of the Department of Sciences (PhD)

E-mail: b.haqberdiyev@afu.uz**Ismog'ilova Madinabonu Shovkat qizi,****Imomnazarova Durdona Farxod qizi**

Faculty of Tourism of the University of Alfraganus, Students

Abstract. This thesis highlights information for girls about the presence of high professional potential and human qualities in teaching graphic and creative competence in fine arts and engineering graphics through digital technologies, the analysis of theoretical and methodological foundations for the development of graphic and creative competence, the effective use of digital technologies and their testing in practice.

Key words: fine arts, engineering graphics, integration, competence, subject, reform, information, technology, research, science, pedagogy, model.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-19>

Bugungi kunda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassisliklarini rivojlantirish oliy ta'lim yo'nalishi talabalarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish modellarini amaliyotga tatbiq etilmoqda. Talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda, ta'lim subyektlari faoliyatini optimal rejalashtirish, talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish, natijalar uchun grafik va ijodkorlik hissini tarbiyalash, rivojlanayotgan sharoitlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish hissiyatini kengaytirish bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda [1.98-99-b]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan

ko'zlangan pirovard maqsadga erishishda ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining natijaviyligi oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borish vazifasini qo'yadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda oliy ta'lim talabalarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi deb belgilab qo'yilgan hamda mamlakatimiz ertasi bo'lgan talaba-yoshlarni axborot-texnologiyalaridan unumli foydalangan holda kasbiy salohiyatli va kompetentsiyalarini rivojlantirish orqali yetuk kadrlar sifatida tarbiyalash masalasi davrning o'zi taqozo etmoqda.

Kompetentlik - tushunchasi dastavval ta'lim tizimiga psixologik, pedagogik izlanishlar va tadqiqotlar natijasida kirib kelgan atama bo'lib, zamonaviy tushuncha sifatida qo'llanilib kelinmoqda, ushbu atama lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishayapman, munosibman" degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi

Ahmad Yugnakiy o'z asarida ilm saodatga yetaklashini, baxtning kaliti ilmda ekanligini ta'kidlaydi. Barcha zamonlarda ham ilm sohiblari va ularga qarama-qarshi tarafda johillar ham bo'lishgan. Muallif bilimlari va bilimsiz insonlarni taqqoslar ekan, bilimlari tillo dinorga qiyoslansa, bilimsiz, johil odam xalq orasida doim xor-u zor bo'lishi aytiladi. Suyakning ko'rki ilik bo'lganidek, insonning ko'rki uning aqli, ilmi ekanligi ta'kidlanadi. "Bolalarni yoshlikdan hayotiy zarur bilimlarni egallashga o'rgatish, chetdan olingan ma'lumot yoki xabarni mantiqan qiyoslash, tahlil qilishga o'rgatish kerakligini A.R.Beruniy bobomiz ta'kidlaganlar. Insonlar zarurat sezmasalar harakat qilmaydilar. Odamlar o'z manfaatidan kelib chiqib harakat qiladi, foyda chiqadigan narsaga intiladi. Bilginki, odam natijasi foydasiz bo'lgan ishni qilmaydi degan edi A.Navoiy bobomiz. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimlarni tavsiflaydi va insonning ko'nikmalari, harakatlari, natijada, qo'llaniladigan bilimlarni aniq (o'lchanadigan) yutuqlar bilan bevosita bog'laydigan narsa faoliyat-mutaxassis yangiliklari, qobiliyatini bildiradi (yoki olingan natijalar uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish va ushbu javobgarlikning o'z chegaralarini tushunishdir degan M. Vikulina.

Bu borada bo'lajak tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarining grafik va ijodiy kompetentligini shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida ijodiy bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish masalalarini ochish alohida dolzarblik kasb etadi [2. 104-105-b]. Bu esa kredit-modul tizimi asosida bo'lajak tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarining grafik va ijodiy kompetentligini rivojlantirishga doir fanlar mazmunini takomillashtirish, bo'lajak tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarida ijodiy va fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi [3. 2-3-b] 1-jadval.

1-jadval

bo'lajak tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalarining tarbiyachilarning grafik va ijodiy kompetentlikni raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali metodik takomillashtirish texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar.	
grafik va ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda pedagogik kategoriyalarni aniqlashtirish lozim.	grafik va ijodiy kompetentligini rivojlantirish bosqichlari, tarkibiy qismlari, kasbiy professiogrammadagi grafik va ijodiy kompetentlik indikatorlarini raqamli texnologiyalardan samarali foydalanib aniqlashtirish lozim.
bo'lajak tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarining grafik va ijodiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va amaliyotda sinab ko'rish yaxshi samara beradi	tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalarining grafik va ijodiy kompetentligini takomillashtirishda axborot texnologiyalari orqali pedagogik modelini ishlab chiqish yo'qori natija beradi.
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy va grafik kompetentligini raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlari orqali metodik takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.	

Bugungi kunda yuqori malakali tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy muammolari ta'limning umumiy muammolari va jamiyat san'at va madaniyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mavjud qonunchilikka muvofiq, mamlakatimizda ta'lim tizimi san'at va madaniyat, grafik ta'lim sohasining uyg'unligi birgalikda amalga oshiriladi[4. 65-66-b].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Rustamovich, H. B., & Qabiljanovich, R. U. (2024). The educational direction " fine arts and engineering graphics" in the formation of the scientific worldview of students the role of computer graphics engineering science. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(03), 97-100.
2. Rustamovich, H. B., & Abdurafikjonovna, A. H. (2024). Theoretical solutions for integrative teaching of fine arts and engineering graphics with various disciplines of still life, consisting of geometric shapes in pencil painting. *International Journal of Advance Scientific Research*, 4(03), 102-106.
3. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
4. Valiyev, A. N., Haqberdiyev, B. R., Gulomova, N. X., & Boboyeva, Z. A. (2020). Drawing. mechanical drawing) Tashkent.
5. Haqberdiyev, B. R., Ismag'illova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA ARXITEKTURA VA DIZAYN. *Academic research in educational sciences, (Conference 1)*, 65-66.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.